



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISHNING O'ZIGA XOS KOMPETENSIYAVIY ASOSLARI

*Rahmonov Z.
Qo'qon DPI*

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiya, zamonaviy ta'lim, AKT, kompetensiya, IT park, raqamli dunyo.

Ключевые слова: цифровые технологии, современное образование, ИКТ, компетентность, ИТ-парк, цифровой мир.

Key words: digital technology, modern education, ICT, competence, IT park, digital world.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish" deb nomlangan 3-bob 2-paragrifida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;
- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;
- zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;
- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish;



- milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog’ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o’quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish ;
- oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog’oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o’quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta’minlovchi “Elektron universitet” platformasiga bosqichma-bosqich o’tish, ta’lim
- jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;
- oliy ta’lim muassasalari pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma’lumotlarni o’zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo’lga qo’yish asosida uning milliy tizimini yaratish kabi asosiy masalalar keltirilgan. [1.B10]

Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o’quvchilarga dars mashg’ulotlarini sifatli o’tilishini ta’minlaydi. Pandemiya sharoiti ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar qo’llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’limga o’tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo’ladi. Bu jarayon o’quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta’limga o’tishning boshqa afzalliklari to’g’risida fikr yuritadigan bo’lsak ularga quyidagilarni kiritish o’rinlidir:

- darsliklar elektron xolatda ekranlarga ko’chadi;
- o’quvchilar hojlagan joyida va xoxlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo’ladi;
- o’quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta’lim olish imkoniga ega bo’ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko’taradi, vaqt va mablag’ sarfini keskin kamaytiradi;



- “raqamli dunyo”da yo’qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo’ladi.

Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o’z navbatida raqamli ta’lim tizimiga o’tishga to’sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa xukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko’rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishontiradi.

Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi. Raqamli ta’limning joriy etilishi o’qituvchilar orasida ishsizlikni keltirib chiqarishi extimolini yuzaga keltiradi, ammo buni ham bartaraf etish imkoni mavjud. Buning uchun o’qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o’stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish orqali bandligini ta’minlash mumkin. Bunda nafaqat mamlakatimizdagi balki chet eldagi qator ta’lim oluvchilarni ham jarayonga jalb etish imkoni bo’ladi. Bu o’z navbatida mustaqil mablag’ topish imkonini bersa ikkinchidan o’qituvchini o’z ustida ko’proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda bunga telegram kanallari orqali amalga oshirilayotgan ta’limni misol sifatida keltirish mumkin. Bu kanallar orqali o’zlashtirish ko’p vaqt talab etadigan bilimlar qisqa muddatda yetkazib berilmoqda. [2.B41-42]

Xorij tajribalariga nazartashlaydigan bo’lsak Rossiya ta’limi rivojlanishining hozirgi bosqichida jamiyatni axborotlashtirish bilan bir qatorda izchil rivojlanishining ustuvor yo’nalishi belgilandi. Aynan shu fonda o’qituvchining, shuningdek o’quvchi va talabalarning AKT kompetentsiyasi kabi tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, IQ texnologiyalaridan foydalanish masalalari faol o’rganilmoqda va ta’lim sohasiga kiritilmoqda.

Umuman aytganda, bugungi kunda AKT kompetentsiyasi deganda u yoki bu ma’lumotlarga kirish yoki uni izlash, qayta ishlash, tarqatish jarayonini tashkil etishni ta’minlaydigan kommunikatsion axborot texnologiyalarini amalda qo’llash qobiliyati tushuniladi. Uning darajasi zamonaviy axborot jamiyatida hayot va ish uchun etarli bo’lishi kerak.

O’qituvchining AKT bo’yicha malakasini oshirish orqali quyidagilar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- yangi ta’lim maqsadlari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish qobiliyati;
- ta’lim jarayonini tashkil etish doirasidagi yangi shakllar;
- zamonaviy ta’lim faoliyati doirasidagi tarkib.



Zamonaviy o'qituvchi malakasining asosiy elementlaridan biri bu AKT kompetensiyasidir. Har yili har qanday fanni o'qitish darajasi oshib bormoqda. AKTning joriy etilishi tufayli ta'lim jarayonining o'zi individual va samaraliroq bo'lib boradi. O'qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati tufayli ma'lumotni o'zlashtirish bilan birga talabalarning qiziqish darajasini haqiqatan ham oshirish mumkin.

Zamonaviy ta'lim Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etishda, albatta, axborot jamiyatining ehtiyojlari hisobga olinadi. Axborotlashtirish jarayoni o'qituvchilarning o'zlarining AKT vakolatlarini faol rivojlantirish va takomillashtirish bilan birga olib borilmoqda.[3.B 3-4]

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. [4.B45]

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga jaxon xamjamiyatida muhim o'rin egallashimizni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
2. Holmirzaev, N. National experience in the formation of working culture. *Ekonomika i sotsium*, 2019 - elibrary.ru
3. L.Jakcon. AKT kompetensiyasi: kontsepsiyasi, tuzilishi, asosiy jihatlari. 2021
4. Qoraev, S. Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 2016.

РЕЗИОМЕ

Maqola Oliy ta'limda raqamli axborot texnologiyalarini o'qitishning kompetensiyaviy asoslari va AKT ning hozirgi kundagi holati haqida tushunchalar berilgan.

РЕЗИОМЕ

В статье представлены компетентностные основы преподавания цифровых информационных технологий в высшей школе и современное состояние ИКТ.

SUMMARY

The article provides insights into the competence bases of teaching digital information technologies in higher education and the current state of ICT.